

"Eng yaxshi innovatsion g'oya" ko'rik-tanlovi loyihalari taqdimoti bo'lib o'tmoqda

// 31.05.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/eng-yaxshi-innovatsion-g-oya-ko-rik-tanlovi-loyihalari-taqdi>



"Eng yaxshi innovatsion g'oya" ko'rik-tanlovi loyihalari taqdimoti bo'lib o'tmoqda

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" milliy forumining eng muhim tanlovi bo'lgan "Eng yaxshi innovatsion g'oya" ko'rik-tanlovi yosh mutaxassislarning yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, sanoatda tejamkor texnologiyalarni samarali qo'llash, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ilmiy-intellektual xakatonning barcha ishtirokchilari 20 ta guruhga bo'lingan holda 4-kun ichida o'z loyihalari ustida ish olib borishgan. Forumdan ko'zlangan maqsad ham yosh mutaxassislar malakasini oshirish, innovatsion loyihalar yaratishga rag'batlantirishdan iborat.

Ayni paytda loyihalar taqdimoti bo'lib o'tmoqda. Ishtirokchilar va bo'lajak kimyogarlarning muammoli vaziyatlarga o'z innovatsion yechimlarini taklif qilishmoqda.











"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati